

## ZAMONAVIY ADABIYOT TA'LIMIDA O'LKASHUNOSLIK MATERIALLARIDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

*Adxamjonova Mushtariybonu Axrorjon qizi,*

*Namangan davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi  
magistranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy adabiyot ta'limida o'lkashunoslik materiallaridan foydalanishning nazariy, amaliy va metodik asoslari keng yoritilgan. Adabiyot darslarida o'lkashunoslik yondashuvini qo'llash o'quvchilarning badiiy tafakkurini, estetik didini, milliy o'zlikni anglashini va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Maqolada o'lkashunoslik materiallari — mahalliy adiblar hayoti va ijodi, tarixiy shaxslar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, o'z yurtiga mehr, ma'naviy o'sish va ilmiy izlanish qobiliyatlarini shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'lkashunoslikni adabiyot ta'limiga integratsiya qilish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'рни — interaktiv metodlar, loyiha asosida o'qitish, mediaresurslardan foydalanish, raqamli o'lkashunoslik xaritalari yaratish kabi innovatsion yondashuvlar misolida asoslab berilgan. Tadqiqotda o'lkashunoslik materiallari yordamida dars jarayonini jonlantirish, adabiy tahlilni o'quvchilarning shaxsiy tajribasi bilan bog'lash, ularni faol ishtirokchi sifatida darsga jalb etish metodlari tahlil qilinadi. Maqola muallifi o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish nafaqat dars samaradorligini oshirishi, balki o'quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish, mustaqil fikr yuritish, o'z fikrini badiiy shaklda ifoda etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishini asoslaydi. Shuningdek, o'qituvchilarning o'lkashunoslik materiallarini tanlash, tizimlashtirish va o'quv dasturiga integratsiya qilishdagi metodik mahorati ham muhim omil sifatida qayd etiladi.

**Kalit so'zlar.** adabiyot ta'limi, o'lkashunoslik, metodika, pedagogik texnologiya, zamonaviy ta'lim, milliy qadriyatlar, madaniy meros, mahalliy adiblar, tarixiy manbalar, xalq og'zaki ijodi, ijodkorlik, tadqiqotchilik kompetensiyasi, mustaqil ta'lim, integratsiya, innovatsion yondashuv, mediaresurslar, loyiha usuli, interaktiv metodlar, adabiy jarayon, milliy o'zlikni anglash, estetik tarbiya, o'quvchi faolligi, dars samaradorligi, ilmiy izlanish.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КРАЕВЕДЧЕСКОГО МАТЕРИАЛА В СОВРЕМЕННОМ ЛИТЕРАТУРНОМ ОБРАЗОВАНИИ

**Аннотация.** В статье широко рассматриваются теоретические, практические и методические основы использования краеведческого материала в современном литературном образовании. Подчеркивается, что применение краеведческого подхода на уроках литературы имеет большое значение для развития

художественного мышления учащихся, эстетического вкуса, понимания национальной идентичности и навыков творческого мышления. В статье анализируются возможности использования краеведческого материала – жизни и творчества местных писателей, исторических деятелей, образцов народного устного творчества – для формирования у учащихся уважения к национальным ценностям, любви к своей Родине, духовного роста и навыков научного исследования. Обосновывается роль современных педагогических технологий в процессе интеграции краеведческого материала в литературное образование – таких инновационных подходов, как интерактивные методы, проектное обучение, использование медиаресурсов, создание цифровых краеведческих карт. В исследовании анализируются способы оживления процесса урока с использованием краеведческого материала, соединения литературного анализа с личным опытом учащихся, вовлечения их в процесс урока в качестве активных участников. Автор статьи утверждает, что использование краеведческого материала не только повышает эффективность урока, но и способствует развитию у учащихся исследовательской компетентности, самостоятельности мышления, умения выражать свои мысли в художественной форме. В качестве важного фактора отмечается методическое мастерство учителя в подборе, систематизации и интеграции краеведческого материала в учебный процесс.

**Ключевые слова.** литературное образование, краеведение, методика, педагогические технологии, современное образование, национальные ценности, культурное наследие, местные писатели, исторические источники, устное народное творчество, творчество, исследовательская компетентность, самостоятельное обучение, интеграция, инновационный подход, медиаресурсы, проектный метод, интерактивные методы, литературный процесс, осознание национальной идентичности, эстетическое воспитание, активность учащихся, эффективность урока, научное исследование.

## IMPROVING THE METHODOLOGY OF USING LOCAL STUDIES MATERIALS IN MODERN LITERATURE EDUCATION

**Abstract.** This article broadly covers the theoretical, practical and methodological foundations of the use of local history materials in modern literature education. It is emphasized that the use of a local history approach in literature lessons is of great importance in developing students' artistic thinking, aesthetic taste, understanding of national identity and creative thinking skills. The article analyzes the possibilities of using local history materials - the life and work of local writers, historical figures, and examples of folk oral art - to form respect for national values, love for one's homeland, spiritual growth and scientific research skills in students. It also substantiates the role of modern pedagogical technologies in the process of integrating local history into literature education - such innovative approaches as interactive methods, project-based learning, the use of media resources, and the creation of digital local history maps. The study analyzes methods of enlivening the lesson process using local history materials, connecting literary analysis with students' personal

*experience, and involving them in the lesson as active participants. The author of the article argues that the use of local history materials not only increases the effectiveness of the lesson, but also serves to develop students' research competence, independent thinking, and the ability to express their thoughts in an artistic form. The methodological skills of teachers in selecting, systematizing, and integrating local history materials into the curriculum are also noted as an important factor.*

**Key words.** *literary education, regional education, methodology, pedagogical technology, modern education, national values, cultural heritage, local writers, historical sources, oral folk art, creativity, investigative competence, independent education, integration, innovative approach, media resources, project method, interactive method, literary process, osoznanie natsionalnoy identichnosti, aesthetic education, flying activity, lesson effectiveness, scientific research.*

## KIRISH

Bugungi globallashuv davrida ta'lim jarayonining mazmuni va metodikasini yangilash, uni milliy qadriyatlar hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida boyitish dolzarb masalalardan biridir. Adabiyot fani bu jarayonda o'quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini shakllantirish, ma'naviy olamini boyitish va milliy o'zlikni anglashda muhim o'rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan, adabiyot darslarida o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish o'quvchilarda o'z yurtiga muhabbat, tarixiy xotira va madaniy merosga hurmat tuyg'ularini kuchaytiradi.

O'lkashunoslik materiallari — bu o'quvchilarning yashab turgan hududiga oid yozuvchilar hayoti va ijodi, adabiy an'analar, xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganishga asoslangan manbalardir. Ularni adabiyot ta'limiga kiritish darslarni hayot bilan bog'lash, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va izlanish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari, interaktiv metodlar va raqamli resurslar bilan uyg'un holda o'lkashunoslik yondashuvini tatbiq etish adabiyot ta'limining samaradorligini oshiradi. Shu bois, o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish o'qituvchilarning kasbiy mahoratini yuksaltirish, o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirish va milliy qadriyatlarni singdirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Zamonaviy adabiyot ta'limida o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni

ko'rsatadiki, bu yo'nalish o'quvchilarning nafaqat badiiy matnni anglashini, balki milliy o'zlikni chuqurroq his etishini ham ta'minlaydi. Adabiyotlar tahlili natijalariga ko'ra, o'lkashunoslik materiallari ta'lim jarayonining mazmunini boyitish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ularni o'z madaniy muhitiga yaqinlashtirishda muhim o'rin tutadi.

Ko'plab pedagog va metodist olimlar, jumladan, A. Qodirov, N. Jo'raev, S. G'ulomova, hamda xorijiy tadqiqotchilardan J. Dyui va L. Vygotskiylarning ilmiy qarashlari o'quv jarayonini hayot bilan bog'lash, o'quvchini faol subyekt sifatida shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. Ularning ishlari adabiyot ta'limida o'lkashunoslik yondashuvini amaliyotga tatbiq etish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Metodik jihatdan bu yondashuv turli usullar orqali amalga oshiriladi. Interaktiv metodlardan — "Aqliy hujum", "Klaster", "Besh savol" kabi usullar — o'quvchilarning faolligini oshiradi va ularni o'z fikrini mustaqil ifodalashga o'rgatadi. Loyiha asosida ishlash esa o'quvchilarga o'z hududidagi yozuvchilar hayoti, adabiy an'analar va tarixiy joylar haqida mustaqil izlanish olib borish imkonini beradi. Ko'rgazmali vositalar — xaritalar, fotosuratlar, videolavhalar — o'quvchilarda badiiy muhitni aniq tasavvur qilishga yordam beradi.

Bundan tashqari, ekspeditsion yoki sayohat metodi orqali o'quvchilar adabiy joylarga, muzeylarga tashrif buyurib, o'lkashunoslik materiallarini bevosita hayotiy tajriba orqali o'rganadilar. Bu esa ularda milliy qadriyatlarga hurmat, vatanparvarlik va ijodkorlik ruhini kuchaytiradi.

Shunday qilib, o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish metodikasining takomillashuvi adabiyot ta'limining mazmuniy sifatini oshiradi, o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi va ularni milliy madaniyatning faol ishtirokchisiga aylantiradi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'tkazilgan tahlillar va amaliy kuzatuvlar natijasida ma'lum bo'ldiki, zamonaviy adabiyot ta'limida o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish o'quvchilarning bilimni chuqurlashtirish, ularning o'rganilayotgan asarlarga nisbatan qiziqishini oshirish va milliy qadriyatlarni anglashini ta'minlaydi.

O'lkashunoslik yondashuvi dars jarayonini yanada jonlantiradi, chunki u o'quvchilarni o'zlari yashayotgan muhit, mahalliy adabiy an'analar va yozuvchilar ijodi bilan bevosita bog'laydi. Bu esa ta'lim jarayonining hayotiyliigi va mazmunii boyligini oshiradi.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, o'lkashunoslik materiallari asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar o'z fikrlarini erkin bayon eta oladilar, matn tahliliga faol jalb etiladilar va ijodiy yondashuv namoyon etadilar. Ular adabiyot darslarini nafaqat matn o'rganish jarayoni, balki o'z tarixiy ildizlarini anglash va milliy iftixorni his etish vositasi sifatida qabul qiladilar.

Metodik yondashuvlar orasida loyiha metodi, interaktiv mashg'ulotlar va ko'rgazmali vositalardan foydalanish eng samarali natija bergan. Ayniqsa, mahalliy yozuvchilar hayoti, ularning asarlarida ifodalangan milliy ruh, shuningdek, o'quvchilarning o'z hududiga oid adabiy manbalarni izlab topish jarayoni ularda tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirgan. Bu holat o'quvchilarning adabiyot faniga qiziqishini kuchaytirgan va o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi ijodiy hamkorlikni mustahkamlagan.

Shuningdek, o'lkashunoslik materiallarini zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish, multimedia vositalaridan foydalanish, virtual sayohatlar tashkil etish o'quv jarayonini yanada samarali qilgan. O'quvchilar nafaqat badiiy matnni o'rganadilar, balki uni o'z hududiy konteksti bilan bog'lab tahlil qilishni o'rganadilar.

Xulosa qilib aytganda, o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish adabiyot ta'limining yangi bosqichini belgilaydi. Bu yondashuv o'quvchilarni faol, izlanuvchan, milliy ruhda tarbiyalangan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi va zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi — milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan yetuk avlodni tarbiyalashga yo'naltirilgan.

## XULOSA

Zamonaviy adabiyot ta'limi jarayonida o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish o'quvchilarning nafaqat badiiy matnni chuqur anglashini, balki o'z milliy qadriyatlari, tarixiy merosi va madaniy muhitiga nisbatan faxr va qiziqishini

kuchaytiradi. O'lkashunoslik yondashuvi adabiyot darslarini hayotiy tajriba bilan bog'lash, ta'lim jarayonini interaktiv va mazmunan boy qilish imkonini beradi.

O'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahliliy yondashuvi va tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda mahalliy adabiy manbalar, yozuvchilar hayoti va ijodiga oid materiallardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu bois, adabiyot o'qituvchilari o'lkashunoslik materiallarini tizimli tarzda o'quv dasturlariga integratsiya etish, dars jarayonini hududiy madaniyat va tarix bilan uyg'unlashtirish metodikasini takomillashtirishi lozim.

Umuman olganda, adabiyot ta'limida o'lkashunoslik materiallaridan samarali foydalanish o'quvchilarda estetik did, milliy o'zlikni anglash, ijodkorlik va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Bu esa zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi — har tomonlama yetuk, madaniyatli va faol shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yo'ldosh Q. Jilovlanmagan tafakkur mahsuli. – Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2023. – 628 b.
1. Mahmudov B. "Portret yaratish mahorati"// Xalq ta'limi. – 2010. –2-son.
2. Abdullayev, A. (2012). *Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi O'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining nashriyoti.
3. Nazarova, G. (2010). *O'quvchilarga estetik tarbiya berishning metodik asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya.
- Shamsutdinova, F. (2015). *Adabiyot darslarida badiiy tahlilning o'рни*. Toshkent: O'qituvchilar nashriyoti.
4. Mukhamedova, R. (2018). *Pedagogik texnologiyalar va metodlar: Adabiy tahlil usullari*. Toshkent: O'zbekiston yoshlar nashriyoti.
5. Yusufov, S. (2014). *Adabiyotda estetik o'zgarishlar va tarbiya metodlari*. Toshkent: Universitet nashriyoti.
6. Raximov, N. (2016). *Badiiy matn tahlili va uning pedagogik ahamiyati*. Tashkent: O'qituvchilar malakasini oshirish markazi.
7. Azimov, U. (2012). *Adabiyot ta'limida estetik tushunchalar*. Toshkent: O'zbekiston xalq ta'limi nashriyoti
8. Sadriddinov, B. (2020). *Adabiyot va estetik tarbiya: Nazariy asoslar va metodik yondashuvlar*. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.
9. Mustafaev, D. (2014). *Badiiy tafakkur va adabiy tahlil*. Toshkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti nashriyoti.
10. Oripov, A. (1996). *She'riyat va badiiy tafakkur*. Toshkent: Yangi avlod nashriyoti. – 67 b.